HARBIY MAQSADDA TIJORIY UÇUVÇISIZ UÇIŞ APPARAT (DRON) LARINING QÖLLANILIŞI

Şaripov Ibrat Çayrat oğli
(ÖR HX va M Universiteti ŞÇHO fakulteti kafedra boşliği)

Annotatsiya: *Uşbu maqolada harbiy sohada havodan zarba beruvçi vosita sifatida tijoriy maqsadda işlab çiqilgan uçuvçisiz uçiş apparat (dron) larini zamonaviy operatsiyalarda qöllanilişi böyiça misollar va ular bilan kuraşiş dolzarbligi şuningdek, harbiy maqsadda maxsus vazifalarini bajariŞidagi afzalliklari hamda kamçilari yoritib ötilgan.*

Kalit sözlar: *Uçuvçisiz uçiş apparati, tijoriy, jangovar harakatlar, harbiy mojarolar, razvedka, qurolli töqnaşuvlar, havodan zarba beriş vositasi, talofat yetkaziş.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются примеры применения в военной сфере беспилотных летательных аппаратов (дронов), имеющих коммерческого применения в качестве средств поражения с воздуха, в современных операциях и актуальность борьбы с ними, а также их преимущества и недостатки при выполнении специальных задач военного назначения.*

Ключевые слова: *беспилотный летательный аппарат, коммерческий, боевые действия, военные конфликты, разведка, вооружённые конфликты, средство поражения с воздуха, нанесение потерь.*

Annotation: *This article examines examples of military applications of unmanned aerial vehicles (drones) with commercial applications as aerial weapons in modern operations and the relevance of combating them, as well as their advantages and disadvantages when performing special military tasks.*

Key words: *unmanned aerial vehicle, commercial, combat operations, military conflicts, intelligence, armed conflicts, aerial weapons, infliction of losses.*

XX asrning ikkinçi yarmidagi uruşlar va XXI asrgi turli körinişdagi qurolli töqnaşuvlar tahlili şuni körsatdiki, havodagi ustunliksiz jangda yoki jangovar harakatlarda töliq muvaffaqiyatga erişiş mumkin emas. U havo jangi böladimi yoki umumqöşin operatsiyasi böladimi buni bugungi kunda ahamiyati yöq.

Zamonaviy harbiy mojaralar tajribalari şuni körsatmoqdaki, UUAlarini har tomonlama takomillaştiriş bilan bir qatorda, hozirgi kunga kelib ular bilan kuraşiş muammosi dolzarb bölib “uruş falsafasini özgarişiga sababçi” bölib qolmoqda.

Bugungi kunda har bir davlat öz Qurolli Kuçlarini, şu jumladan, mamlakatning havo hujumidan mudofaa tizimini takomillaştirib va rivojlantirib borişi şart.

Hozirgi kunda UUAlar turli sohalarda hususan tijoriy (fuqarolik), harbiy, madaniyat, maxsus vazifalarini bajarişda, iqtisodiyot tarmoqlarida, agrar, quriliş, geologorazvedka va boşqalarda samarali foydalanilmoqda.

Har qanday qurolli kuraşayotgan tomon öz duşmanining, eng avvalo, aloqa va informatsion kommunikatsiyalarini, havo nişonlarini aniqlaş, kuzatiş va yakson qiliş tizimlarini, aviatsiyaning barça turlarini, şu jumladan, uçuvçisiz uçiş apparat (UUA) larini jalb qilgan holda yerdan turib yakson qilişga harakat qiladi [1].

Uçuvçisiz uçiş apparatlarning asosiy ustunligi bu razvedka ma’lumotlarni tezkorlik bilan topiş hisoblanadi. Razvedka organlari tomonidan duşmanning obyektlarini qidiriş uçun sarflanadigan vaqt, jismoniy kuç va resurslar tejaladi.

Hozirgi globallaşuv davrda rivojlangan davlatlar harbiy sohada zamonaviy qurol-aslaha va texnikalarga ayniqsa, UUAlar bilan ta‘minlaş va ularga qarşi kuraşişga juda katta e’tibor berilmoqda.

Zamonaviy jangovar harakatlarda razvedkanning barça turlari ayniqsa havo razvedkasi birinçi örinda turadi, hamda havo razvedkasi havo hujumidan mudofaaning ajralmas qismi hisoblanadi. UUA lar nafaqat razvedka va kuzatiş vositasi balki havodan zarba beriş vositalari yani “dron-kamikadze”lar “tanklarning ajali” sifatida ham ijobiy tomondan özini körsatdi [2].

Tijoriy uçuvçiz uçiş apparatlarini qöllaşdagi afzalliklari:

moliyaviy jihatdan kam sarfligi;

şaxsiy tarkibni jonli talofatlardan asraş;

jangovar harakat va operatsiyalarni olib borişda operatorlarni özlari joylaşgan hududdan taşqarida, ya’ni uzoq joylaşganligi;

katta qöşinni kiçik guruhlarga qarşi qiyin manyovrli va köp miqdorli sarflarga ega bölgan janglardan saqlaniş.

Afzaliklari bilan bir qatorda kamçiliklari ham mavjud, bular quyidagiça:

foydali (maqsadli) yuklamalarni yaratişga katta harajatlar sarflanişi;

masofadan boşqarişni zaifligi (şişa tolali kabel);

yöl köriş qobiliyati pastligi;

işonç darajasi ança pastligi.

Tinçlik davrida aholi punktlari va maxsus ob’ektlarni ustidan uçirişga qonun bilan bir qança çeklovlar mavjudligi.

Maxsus operatsiya yoki boşqa biror-bir işçol harakatlarni boşlaşdan avval, radioelektron bosim beriş va bostirişning faol texnik vositalari bilan qarşi turgan tomonni radioelektron vositalarini “bostiriş” orqali mamlakatning içkarisidagi istalgan hududida razvedka-qöporuv işlarni olib borib öz oldiga qöygan maqsadiga erişişi mumkin.

UUAning imkoniyati va harbiy sohada qöllanişi rivojlanişi bilan birgalikda unga qarşi kuraşiş hamda yaşovçanlikni oşirib borişga olib kelmoqda.

UUA larning yaratiliş davri boşlarida harbiy harakatlarda razvedka, kuzatuv işlarini olib borişda foydalanilgan bölsa, bugungi kunga kelib u mustaqil zarba beruvçi kuç hamda jangovar imkoniyatni oşiruvçi vosita sifatida foydalanilmoqda. UUAni işlab çiqaruvçi davlatlar ularni ölçamlarini kiçraytirib, turli köp maqsadli vazifalarni bajaruvçi “aqlli UUA” ga aylantirişdi.

Bugungi kundagi zamonaviy jangovar harakatlarda, qöyilgan maqsadga erişiş, jangovar vazifani har qanday yöl bilan bajariş uçun turli xil taşabbuskorona harakatlar va çoyalar qöllab-quvvatlanmoqda, “uruşda ehtiyoj, ixtirolarga yöl oçadi” tamoyiliga asosan işlar olib borilmoqda [3,4].

Tijoriy dronlarning taşqi körinişi, tuzilişi, tarkibiy qismlari böyiça işlab çiqarişda biror bir belgilangan standart bölmaganligi sababli ularni aniq sinflanişga ajratiş juda murakkab bölib qolmoqda.

Bugungi kunda tijoriy dronlarni harbiy maqsadda qöllaşda boşqaruvni izdan çiqarişni, radioelektron vositalarini ta’sirini oldini oliş maqsadida şişa tolali kabel “fiber” örnatiş orqali hattoki sunniy intellekt (SI) yordamida boşqarişni amalga oşiriş tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Tijoriiy dronlarga maxsus möljallagiçlar, tungi yoritgiçlar, erdagi nişonlarni körsatkiçlar, şuningdek, ob’ektiv nazorat moslamalarini örnatiş va “uloqtiriladigan” (2-rasm) talofat etkaziş vositalari uçun maxsus qotiriş moslamalari bilan qayta jihozlanib qöllanilmoqda.

Eng sodda granata taşlaydigan moslama pişiq ip yoki fiksator yordamida plastik truba bölagiga granata biriktirilib tayyorlangan.

Dastlab UUA granata taşlaş hududida 300 m balandlikka kötarilgan, keyin nişonni aniq şikastlaş maqsadida 100-150 metrgaça pastlagan.

Boşqarayotgan operator komandasi bilan granata ob’ektga “taşlangan” yoki kelib urilgan. “Kvadrokopter” rangli gabarit çiroqlari skotç yordamida niqoblangan.

Odatda qölbola portlovçi qurilma va granatalar zarba ta’sirida harakatga keladigan sodda kontaktli portlatgiçga ega bölgan va patli, yengil plastmassa korpusga örnatilgan.

Bunday qölbola portlovçi qurilmalar portlaşi natijasida 10 m radiusdagi şaxsiy tarkib yengil jarohatlaniş va kontuziya bilan şikastlangan. Dron orqali “uloqtirilgan” va “taşlangan” granatalarning 80-90% muvaffaqiyatli portlagan.

Kiçik dron operatorlari sifatida ob’ektga maksimal yaqinlaşa oladigan va duŞman harbiy xizmatçilarda şubha tuçdirmaydigan, örgatilgan va maxsus öqitilib tayyorlangan ösmirlar jalb qilingan. Eng muvaffaqqiyatli şikastlaşlar kuraşayotgan qarama-qarşi tononlar tarafidan tarçibot videoroliklari sifatida ijtimoiy tarmoqlarga tarqatilgan.

Zarba beruvçi “dron-kamikadze” va “uloqtiruvçi dron” ning asosiy nişonlari şaxsiy tarkib va texnika töplangan joylar, harbiy baza elementlari, blokpostlar, tayanç (boşqaruv) punktlari, zaxiralar saqlanadigan omborlar va sanoat komplekslar hisoblangan.

Kiçik hajmli dronlar radiolokatsion va vizual jihatdan deyarli sezilmasligi, past balandlikda va yuqori tezlikda uçiŞi, quriqlikdagi qöşinlar tomonidan aniqlanişi hamda ştatdagi radioelektron va zenit vositalari bilan yakson qiliş ehtimolini kamaytirgan.

Jahonda röy berayotgan qurolli nizolarda UUA bilan hususan, modernizatsiya qilingan va qayta jihozlangan tijoriy dronlar bilan boçliq bir qança muhim voqealar yuz berdi.

Masalan, 2018-yil yanvar oyida Suriya Arab Respublikasidagi jangarilar tomonidan “dronlar galasi” orqali Xmeymim bazasida joylaşgan Rossiya Federatsiyasining aerodromiga uyuştirilgan hujum [3].

2025- yil 1- iyun kuni butun dunyoni hayratga solgan Ukraina QK tomonidan “Pautina” nomli razved-diversion operatsiyasi davomida Rossiya Federatsiyasining bir qator huddudida joylaşgan 4 ta aerodromlariga “dronlar galasi” bilan zarbalar berdi buning natijasida Rossiya Federatsiyasining aviatsiya parki katta yöqotişlarga uçradi hamda iqtisodiy zararlar kördi [3,4].

Hozirgi kunda bir qança rivojlangan davlatlarning harbiy sanoat korxona (kompleks) lari tomonidan barça toifadagi dronlarni aniqlaş, ularni identifikatsiyalaş va bostirişga yordam beradigan elektromagnit bostiriş va bosim beriŞ tizimlarini yaratiş böyiça işlar olib borilmoqda.

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilib, şuni aytiş mumkinki, qayta jihozlanib harbiy maqsadda qöllanilayotgan kiçik ölçamdagi tijoriy UUA lar bilan jadal suratlarda kuraş olib boriş uçun yangi maxsus ixtisoslaştirilgan qurilmalar va zamonaviy kuraş vositalari zarur.

Tijoriy UUA larning kiçik ölçamlarini, keltirib çiqarayotgan barça zararli oqibatlarini, mutaxassislar tamonidan qölbola yasalganligini va ularni qöllaş böyiça qurolli nizolar tajribalaridan kelib çiqqan holda, UUA bilan kuraş olib boriş uçun ilmiy-texnikaviy izlanişlarni jadal suratlarda rivojlantiriş, radiolokatsion stansiyalarni modernizatsiyalaş va zamonaviy qurol-aslaha tizimlarini kompleks ravişda qöllaş bugungi kunda har qanday havodan beriladigan zarbalarni qaytarişga, unga qarşi kuraşişga qodir bölmagan har qanday qöşinni, oçir musibat kutişi öz dolzarbligini va muhimligini saqlab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Sulaymonov B.B. “Uçuvçisiz uçiş apparatlarining rivojlaniş tendensiyasi va ularni razvedka faoliyatida qöllaş tajribalari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy konferensiya materiallari tÖplami (2022-yil 25-fevral). // ÖR QK A JTK. – Toşkent: ÖR QK Akademiyasi, 2022. – 120 b.

2. Уринов, Ф.С. Беспилотные летательные аппараты. Перспективные средства ПВО применяемые для борьбы с БПЛА в современных войнах и вооруженных конфликтах: учебное пособие / Ф.С. Уринов, Ф.Е. Слямбаев. - Т.: АВС РУ, 2017. 16-25 b.

3. htttp://kun.uz. SBU “Pautina” operatsiyasi qanday keçganini körsatdi. Murojaaat sanasi 12.10.2026 yil.

4. htttps://news.mail.ru. Дрон-камикадзе: недорогое оружие изменившее представление о современной войне. Murojaaat sanasi 04.10.2026 yil.